

«LoanId» - sonli AVTOKREDIT SHARTNOMASI

Toshkent sh.

«Date» y.

“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki nomidan 2022 yil _____ dagi ____-sonli Ishonchnoma asosida ish yurituvchi Savdo va mijozlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mutaxassis “AuthorizedUser” (*keyingi o‘rinlarda “Bank” deb yuritiladi*) va ikkinchi tomondan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, “PassportIssuingAuthority” tomonidan “PassportValidFrom” da berilgan “PassportID” “PersonalNumber” raqamli pasport egasi “Fullname” (*keyingi o‘rinlarda “Qarz oluvchi” deb yuritiladi*), birgalikda “Tomonlar” deb ataladi, ushbu avtokredit shartnomasini (*keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb yuritiladi*) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu Shartnoma shartlariga ko‘ra, Bank Qarz oluvchiga Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda avtokredit (*keyingi o‘rinlarda “Kredit” deb yuritiladi*) berish majburiyatini oladi, va Qarz oluvchi ushbu Shartnoma shartlariga ko‘ra, bank hisobvarag‘larini ochish va boshqa bank xizmatlarini va mahsulotlarini taqdim etish uchun Ariza/so‘rovlar (*keyingi o‘rinlarda Ariza/so‘rovlar deb ataladi*) hamda Bankning www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan “TBC Bank” ATB bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha bosh shartlar (*keyingi o‘rinlarda “BSh” deb ataladi*) asosida olgan kreditni qaytarish, foiz va boshqa to‘lovlarni to‘lash majburiyatini oladi.

1.2. Mazkur Shartnoma BSh va Ariza/so‘rovlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

2. KREDIT SHARTLARI VA KREDIT TO‘LOVI

2.1. Kredit quyidagi shartlar asosida beriladi:

2.1.1. Kredit summasi: “Amount” («AmountInWords») so‘m;

2.1.2. Kreditning maqsadi va obykti: “CarSellAgreementDate” yildagi “CarSellAgreementID”-sonli oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha “CarModelBrand” rusumli avtomashinani sotib olish;

2.1.3. Kredit muddati: “TermInMonths” oy;

2.1.4. Kredit valyutasi: O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi;

2.1.5. Kreditni berish muddati: Bank tomonidan ariza ma’qullanganidan so‘ng, 5 ish kunidan oshmasligi kerak;

2.1.6. Kredit berish shakli: naqd pul bo‘lmagan bank o‘tkazmasi orqali.

2.1.7. Oxirgi transhni so‘ndirish sanasi: “LastPaymentDate” gacha

2.1.8. Kreditni so‘ndirish usuli: ushbu Shartnomaga ilova qilingan annuitet usul bo‘yicha hisoblangan jadvalga muvofiq teng taqsimlangan to‘lov;

2.2. Kredit bo‘yicha foizlarni to‘lash:

2.2.1. asosiy qarz qoldig‘iga hisoblangan - yillik “Interest” %;

2.2.2. muddati o‘tgan asosiy qarz qoldig‘iga - yillik “PenaltyRateModifier” %;

2.3. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditni hisobga olish uchun Bank kreditga xizmat ko‘rsatish uchun Qarz oluvchiga tegishli hisobvarag‘lar ochadi.

2.4. Ushbu bilan Qarz oluvchi Bankka O‘zbekiston Respublikasining istalgan bankida ochilgan Qarz oluvchining bank kartasidan (shu jumladan, avval qo‘shilgan, keyinchalik TBC UZ mobil ilovasidan o‘chirilgan) va barcha hisobvarag‘laridan (shuningdek, Bankda ochilgan Depozit hisobvarag‘lardan) avtomat ravishda Bankka to‘lanishi kerak bo‘lgan summani yechib olish bo‘yicha o‘z roziligini beradi, topshiradi va vakolat beradi.

2.5. Agar Qarz oluvchi Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 15 kalendar kundan kam yoki unga teng bo'lgan kreditni to'lash muddatini tanlasa, to'lov jadvali bo'yicha birinchi to'lov ushbu Shartnoma tuzilgan oydan keyingi yoki ikkinchi oyda shakllanadi. Bu holatda, Qarz oluvchining birinchi to'lovi hisoblangan foizlar ko'rinishida shakllanishi mumkin va u kredit berilgan kun va birinchi annuitet to'lov kuni o'rtasidagi kunlar soniga bog'liq bo'ladi.

3. HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha tegishli shartlar va majburiyatlarni bajarganidan so'ng, 2.1.2-bandda nazarda tutilgan maqsadga muvofiq Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan to'lanadigan pul mablag'larini sotuvchi-vositachining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan Bank Qarz oluvchiga kredit taqdim etadi.

3.2. Kredit belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirilib, Bank tomonidan kreditning qaytarilishini ta'minlash va mazkur Shartnoma bo'yicha boshqa dastlabki shartlar bajarilganligini belgilovchi hujjat/lar olinganidan keyin beriladi.

3.3. Qarz oluvchi TBC UZ mobil ilovasi orqali Qarz oluvchi tomonidan o'z mablag'larini Bank moliyalashtirguniga qadar sotuvchi-vositachining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga kiritish yo'li bilan, sotib olinayotgan avtomobil narxining eng kamida "ContributionAmountPercent" % ni tashkil qiluvchi "ContributionAmount" ("ContributionAmountWords") so'm miqdorida dastlabki badalni kiritishi kerak.

3.4. Qarz oluvchi olingan kreditni va u bo'yicha hisoblangan foizlarni Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 1-Ilovasiga muvofiq Kreditni so'ndirish jadvalida ko'rsatilgan muddatlarga ko'ra har bir oyning "PaymentDay" dan kechiktirmagan holda to'lashi kerak. 1-Ilovadagi foizlar miqdori dastlabki hisoblanib, kreditning va uning so'ndirish bo'yicha tanlangan haqiqiy sanasi asosida tuzatishlar kiritilishi kerak.

3.5. Kredit bo'yicha foizlar har kuni asosiy qarzning qoldig'i bo'yicha hisoblanadi. Juma kuni foizlar joriy oyning dam olish kunlari uchun hisoblanadi. Foizlarni hisoblash uchun yilning 365 kunlik hisob-kitob usulidan foydalaniladi. Foiz hisoblash kreditning birinchi summasi berilgan kundan boshlanadi.

3.6. Asosiy qarzning muddati o'tgan qismi bo'yicha foiz stavka kechiktirilgan birinchi kundan boshlab kreditning muddati o'tgan qismi to'liq so'ndirilguniga qadar hisoblanadi. Asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan asosiy qarzdorlik uchun foizlar mazkur Shartnomaning 2.2.2-bandida belgilangan stavka bo'yicha hisoblanadi.

3.7. Agar biron-bir to'lov kuni dam olish yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, to'lov dam olish yoki bayram kundan keyingi kunga o'tkaziladi.

3.8. Avtomat ravishda yechib olish xizmati Qarz oluvchi kredit olgan vaqtdan boshlab Bank tomonidan faollashtiriladi, shu bilan birga Qarz oluvchi esa Bankdan ushbu xizmatni ixtiyoriy ravishda olishiga rozilik bildiradi va tasdiqlaydi.

3.9. Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasining barcha banklarida Qarz oluvchiga yangidan ochilgan bank kartalaridan, shuningdek, Qarz oluvchiga tegishli bank kartalaridan kredit bo'yicha to'lovlarni Bank tomonidan so'zsiz yechib olinishiga rozilik beradi.

3.10. Mazkur Shartnoma bo'yicha qarzdorlikni undirish Bank tomonidan quyidagi tartibda avtomat ravishda yechib olish orqali amalga oshiriladi:

3.10.1. muddati o'tgan asosiy qarz bo'yicha hisoblangan foizlar;

3.10.2. muddati o'tgan foizlar;

3.10.3. muddati o'tgan asosiy qarzning summasi;

3.10.4. Kredit bo'yicha hisoblangan foizlar;

3.10.5. Kredit bo'yicha asosiy qarzning summasi;

3.11. Qarz oluvchi tomonidan kredit muddatidan oldin so'ndirilganda, Bank tomonidan mazkur so'ndirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

3.11.1. to'lov sanasida hisoblangan foizlar qoldig'i;

3.11.2. asosiy qarz qoldig'i.

3.12. Kredit muddatidan oldin so'ndirilganda, keyingi to'lov jadvali asosiy qarz summasining qoldig'idan annuitet usul bo'yicha qayta hisoblab chiqiladi, bunda so'ndirish sanalari o'zgarmaydi.

4. KREDITNI QAYTARILISHINI TA'MINLASH

4.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha berilgan Kredit quyidagilar bilan ta'minlanadi:

4.1.1. asosiy ta'minot - 2.1.2-bandga muvofiq xarid qilinayotgan avtomobil;

4.1.2. Avtomobilga egalik huquqi qo'lga kiritilganidan so'ng, kredit mablag'lari hisobidan xarid qilinayotgan avtomobilning garov shartnomasi notarial ravishda rasmiylashtiriladi va (xarid qilinayotgan avtomobil) garov bo'yicha sug'urta polisi rasmiylashtiriladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi Bank hisoblanadi.

4.1.2-bandda ko'rsatilgan garov predmeti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda garovni rasmiylashtirish uchun mulk huquqi olingan kundan boshlab 10 kalendar kun muddat beriladi. Agar garov belgilangan muddatda rasmiylashtirilmasa, Bank kredit bo'yicha summalarni va kredit berish bilan bog'liq sarflangan xarajatlarni muddatidan oldin undirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Garov bo'yicha ta'minotning garov qiymati "CollateralAmount" so'm yoki kredit summasidan kamida 125 foizini tashkil etadi.

4.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha Kreditning qaytarilishini ta'minlashning aniq shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan alohida shartnoma doirasida tartibga solinadi.

Bunda notarial tasdiqlash va/yoki davlat ro'yxatidan o'tkazish talab qilinadigan shartnomalar ular notarial tasdiqlangan va/yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

4.3. Qarz oluvchi majburiyatlarini bajarish uchun bir nechta ta'minotning mavjudligi bir-biriga zid kelmaydi, majburiyatlarni bajarishning har bir usuli mustaqil va bir-biriga bog'liq emas. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullari bilan bog'liq undirish zarurati tug'ilganda, tanlash huquqi Bankda qoladi va u o'z xohishiga ko'ra majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning istalgan usullariga yoki barcha usullariga talab qo'yishi mumkin.

4.4. Qarz oluvchi kreditning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha hujjatlarni tegishli ravishda rasmiylashtirish uchun har qanday xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

4.5. Kreditning qaytarilishini ta'minlash va ushbu Shartnoma bo'yicha boshqa dastlabki shartlar bajarilganligini belgilovchi hujjat/lar Bank tomonidan olinganidan keyin va belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirilganidan so'ng kredit taqdim etiladi.

4.6. Bankning talabiga binoan Qarz oluvchi Bank talabiga javob beruvchi qo'shimcha ta'minotni taqdim etishi shart, agar (a) Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashsa; (b) likvidligi, qiymati va haqiqiyliги yo'qotilsa; bozor qiymati sezilarli darajada pasaysa; Shartnomaga ko'ra berilgan kredit bo'yicha garov ta'minoti nobud bo'lsa, qisman yoki to'liq yo'qotilsa; (c) Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik xavfini oshiradigan boshqa omillar yuzaga kelsa. Qarz oluvchi kredit ta'minotini kredit summasining eng kamida 125 (bir yuz yigirma besh) foiz miqdorida ushlab turish kerak.

4.7. Agar Qarz oluvchi ushbu Shartnomada belgilangan sanada asosiy qarz va/yoki foizlarni to'lay olmaydigan vaziyat yuzaga kelsa, Bank amaldagi qonunchilikka, mazkur Shartnoma va ta'minot shartnomalariga muvofiq ta'minot va/yoki uning qismlarini undirib olish uchun qaytarib bo'lmaydigan va so'zsiz huquqqa ega bo'ladi.

5. TOMONLAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1. **Bank quyidagi huquqlarga ega:**

5.1.1. quyidagi holatlarda Qarz oluvchiga to'liq yoki qisman kredit berishni rad etish huquqiga ega:

a) kreditning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha u tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaganda;

b) Shartnoma tuzilgandan keyin kreditni qaytarilishiga ta'sir qiluvchi taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchsizligi aniqlanganda.

5.1.2. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarga, kreditdan foydalanishiga, uning butunligi, kafolatlanganligi, yetarliligi va likvidligi bo'yicha qaytarilishini ta'minlanishiga asoslanib, Bank Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tekshirishi mumkin;

Bunday tekshiruvlarning davriyligi Bank tomonidan belgilanadi;

5.1.3. Bank Qarz oluvchidan kreditni (shu jumladan hisoblangan foizlarni) muddatidan oldin to'lanishini talab qilishga va/yoki quyidagi holatlarda undan keyingi kreditlarni berishni to'xtatishga haqli:

a) Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma, BSh bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarga rioya etmasa va/yoki ularni bajarmasa va/yoki lozim darajada bajarmasa;

b) agar Qarz oluvchi kredit olish uchun Bankka kredit berish to'g'risida qaror qabul qilish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega masalalar bo'yicha noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa;

c) kredit qaytarilish ta'minoti yo'qolganda yoki ta'minot qiymatining pasayganda;

d) Qarz oluvchi mazkur Shartnomaning 5.1.2-bandida ko'rsatilgan bank nazoratidan bosh tortsa;

e) mazkur Shartnoma va BShdan kelib chiqadigan asosiy qarzni, foizlarni va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni o'z vaqtida to'lama;

f) ushbu Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 10 kun davomida garov shartnomasini rasmiylashtirmasa;

g) Qarz oluvchi moliyaviy ahvolidan yomonlashsa, shu jumladan daromad manbai yo'qolsa;

h) agar Qarz oluvchiga nisbatan jinoiy ish yoki sud ishi qo'zg'atilgan bo'lsa yoki agar qarzni ta'minlash uchun Qarz oluvchining mol-mulki xatlangan bo'lsa yoki Qarz oluvchining mablag'lari yoki boshqa mol-mulki bilan bog'liq operatsiyalar muzlatilgan va/yoki to'xtatilgan bo'lsa;

i) mazkur Shartnomani tuzish va undan foydalanishdan maqsad jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish ekanligiga shubhalar mavjud bo'lsa;

j) Qarz oluvchiga pul summasini to'lash va/yoki Qarz oluvchining mol-mulkini talab etish va/yoki miqdori bilan Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini xavf ostiga qo'yuvchi uchinchi shaxslar tomondan xatlash ishlari haqida da'vo arizasi taqdim etilgan bo'lsa;

k) ushbu Shartnoma, BSh va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

5.1.4. Agar quyidagi hodisalar ro'y bersa va davom etsa, Qarz oluvchidan kredit summasini va boshqa to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlarni darhol, muddatidan oldin to'lashni talab qilish:

5.1.4.1. Qarz oluvchining (ushbu Shartnomadan tashqari) istalgan kredit qarzdorligi bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yuzaga kelsa;

5.1.4.2. istalgan davlat organlari Qarz oluvchining mol-mulki yoki boshqa aktivlarining barchasini yoki istalgan muhim qismini musodara qilsa, natsionalizatsiya yoki boshqacha tarzda olib qo'yilsa, yoki Qarz oluvchining mol-mulki/boshqa aktivlarini saqlash yoki nazorat qilish yoki Qarz oluvchining avtokredit bo'yicha qarzdorlikni so'ndirilishiga to'sqinlik qiladigan har qanday harakat amalga oshirilsa;

5.1.4.3. Qarz oluvchiga yoki Qarz oluvchi bilan bog'liq bo'lgan har qanday tarzda uchinchi shaxslarga nisbatan, da'volar yoki jinoiy ishlar, fuqarolik ishlari qo'zg'atilgan bo'lsa, agar bu bilan Qarz oluvchining to'lov qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa.

5.1.5. Ushbu Shartnomaning 5.1.3-kichik bandiga muvofiq kredit muddatidan oldin so'ndirilsa, Bankning mazkur Shartnoma shartlariga ko'ra kreditning qaytarilishini ta'minlash va Qarz oluvchining boshqa mol-mulkini undirish bo'yicha huquqi yuzaga keladi.

5.1.6. Garov reestrda va Kredit byurosiga mazkur Shartnoma shartlari va kredit qaytarilishini ta'minlash hamda Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishini ta'minlash to'g'risida ma'lumot taqdim etish.

5.1.7. Mazkur Shartnomaning 2.4-bandida ko'rsatilgan Qarz oluvchining roziligi asosida Bank va boshqa banklarda ochilgan barcha hisobvarag'lar va bank kartalaridan, shuningdek, Bankda ochilgan istalgan Depozit hisobvarag'idan avtomat ravishda quyidagi pul mablag'larini yechib olish:

5.1.7.1. To'lov jadvaliga muvofiq so'ndirish sanasida asosiy qarz summasini va u bo'yicha foizlar;

5.1.7.2. Muddati o'tgan asosiy qarz bo'yicha hisoblangan foizlar summasi, muddati o'tgan foizlar summasi, muddati o'tgan asosiy qarz summasi.

5.1.8. Bank butun garov mulki hamda uning qismlariga notariusning ijro yozuvini olish orqali Qarz oluvchining garovga qo'yilgan mol-mulkini undirish yo'li bilan sudga murojaat qilmagan holda kredit shartnomasi bo'yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni undirishga (Qarz oluvchi bu haqda o'z roziligini beradi) haqli.

5.2. Bank majburiyatlari:

5.2.1. Qarz oluvchiga ushbu Shartnomaning 4-bo'limida belgilangan kreditni rasmiylashtirish bo'yicha majburiyatlar bajarilgan kundan boshlab 5 bank kuni ichida Shartnomada nazarda tutilgan shartlarda va tartibda kredit berish;

5.2.2. Qarz oluvchi tomonidan kredit to'liq so'ndirilganidan so'ng, uch ish kunidan kechiktirmagan holda notarial organlarga garov ta'minoti predmetiga qo'yilgan taqiqni bekor qilish to'g'risida ma'lumotnomalar taqdim etish.

5.2.3. Qarz oluvchiga uning yozma so'roviga binoan kredit bilan bog'liq ma'lumotlarni taqdim etish, uning huquq va majburiyatlari, shu jumladan iste'mol kreditini berish bilan bog'liq barcha xarajatlar to'g'risida aniq va to'liq ma'lumot berish;

5.2.4. To'lovlar haqida xabar berish uchun BShda ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalanish.

5.3. Qarz oluvchining huquqlari:

5.3.1. BShda ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali qarzdorlik va kreditni so'ndirish shartlari to'g'risidagi ma'lumotni olish;

5.3.2. ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hajmda, muddatlarda va shartlarda kreditni taqdim etilishini talab qilish;

5.3.3. kredit bo'yicha qarzdorlik summasini to'liq yoki qisman hajmda muddatdan oldin so'ndirish va ushbu Shartnoma bo'yicha hisoblangan foizlarni istalgan vaqtda Bank tomonidan jarima sanksiyalarini qo'llamagan holda to'lash.

5.3.4. Bankdan Shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish.

5.3.5. Pul mablag'larini olgunga qadar davrda Shartnoma tuzilganidan so'ng, Kreditni olishdan bepul asoslarda bosh tortish.

5.4. Qarz oluvchi majburiyatlari:

5.4.1. to'lov jadvaliga muvofiq ushbu Shartnoma va BShda nazarda tutilgan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish;

5.4.2. mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydigan (va) shartnoma(lar)da nazarda tutilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarish. Ta'minlanotning bozor qiymati yo'qotilgan yoki pasaygan taqdirda, Qarz oluvchi ta'minotni tiklashi yoki unga tenglashtirilgan ta'minotni taqdim etishi kerak.

5.4.3. kreditni qaytarish va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq muddatidan oldin qaytarish to'g'risidagi talabni Bankdan olganda kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni to'lash;

5.4.4. Uch kalendar kun ichida masofaviy aloqa kanallari va/yoki bevosita bo'linmalarga kelgan holda yoki bank xizmatlari markazlariga BShda belgilangan tartibda va usulda, BShga muvofiq ushbu Shartnomani tuzishda taqdim etilgan pasport va boshqa ma'lumotlar o'zgarganligi, shu jumladan mobil telefon raqami, ish telefoni, ro'yxatdan o'tgan manzili, yashash joyi, ish joyi (daromad manbai), familiyasi yoki ismi va Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma va BSh bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar haqida xabardor qilishi kerak.

5.4.5. mazkur Shartnoma doirasida kreditni taqdim etish muddati davomida amal qiladigan va Bankka tegishli tartibda rasmiylashtirilgan garov ta'minotini sug'urtalash polisini taqdim etishi kerak.

5.4.6. Garovni sug'urta qilish bilan bog'liq barcha xarajatlarni to'lash.

5.4.7. Kreditni o'z vaqtida va to'liq so'ndirish va u bo'yicha foizlarni to'lash, shuningdek, Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarini to'g'ri bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha holatlar to'g'risida Bankni o'z vaqtida xabardor qilish.

5.4.8. Bankning birinchi talabiga ko'ra, kreditdan foydalanish davrida Bankka Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini va ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarilishini aniqlash uchun zarur bo'lgan ishonchli ma'lumot va hujjatlarni (ish joyi, ish haqi hajmi haqida ma'lumotnoma va h.k.) taqdim etish.

5.4.9. Qarz oluvchi moliyaviy ahvolidan yomonlashishiga va ushbu Shartnoma shartlarini tegishli ravishda bajarilishiga tahdid solishi mumkin bo'lgan hech qanday harakatlar va choralarni ko'rmaslik.

5.4.10. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni, istalgan ma'lumot manbalaridan foydalangan holda, Kredit olish uchun Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan, hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni Bank, uning xodimlari, bankning huquqiy vorislari va affilangan shaxslari tomonidan tekshirish va qayta tekshirish imkoniyatini berish.

5.4.11. Bank tomonidan kredit bo'yicha monitoring olib borish hamda garov predmetining mavjudligi, saqlanish shartlarini tekshirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish va to'sqinlik qilmaslik hamda tegishli so'rovni yuborgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kun davomida garov predmeti bo'yicha Bank tomonidan talab qilingan barcha ma'lumotlarni taqdim etishi kerak. Yozma so'rov yuborilgan sana uning Qarz oluvchiga topshirilgan sanasi yoki pochta orqali yuborilgan sana hisoblanadi.

5.4.12. Bankning yozma roziligisiz ushbu Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini to'liq yoki qisman boshqa shaxsga topshirmaslik.

6. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIKLARI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Bank Kredit bo'yicha to'lanmagan mablag'larni qaytarishni, barcha hisoblangan foizlarni to'lashni va boshqa qo'shimcha talablarni, shuningdek, Qarz oluvchi tomonidan Bankka yetkazilgan barcha yo'qotishlar va zararlarni Qarz oluvchining ish haqi, Qarz oluvchining boshqa pul mablag'lari va uning boshqa likvid mulki hisobidan Qarz oluvchi tomonidan qoplanishini talab qilishga haqli.

6.2. MBX (masofaviy bank xizmatlari) va kredit mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq barcha harakatlar uchun Qarz oluvchi o'zi javobgar bo'ladi.

6.3. Kredit berish bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan yoki o'z vaqtida bajarmagan taqdirda, Bank Qarz oluvchiga majburiyatlarga rioya etilmagan vaqtda O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi bazaviy hisoblangan qiymatdan 10 foiz miqdorida bir martalik jarima to'lashi shart.

6.4. Jarima to'lash Tomonlarni ularga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan yoki ularga rioya etilmasliklarini bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

6.5. Bank va Qarz oluvchining ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarliklari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qo'llaniladi.

6.6. Bank tomonidan Shartnomaning ushbu bo'limida belgilangan javobgarliklarini qo'llash Bankning majburiyati emas, balki Bankning mutlaq huquqidir. Bank, o'z xohishiga ko'ra, ushbu Shartnoma bo'yicha o'ziga tegishli huquqlardan birini Qarz oluvchiga nisbatan qo'llashi yoki qo'llamasligi mumkin. Bank tomonidan ushbu huquqlardan foydalanmaslik yoki qisman qo'llash ushbu huquqlardan voz kechish hisoblanmaydi va ular keyinchalik istalgan vaqtda qo'llanilishi mumkin.

6.7. Mazkur Shartnoma yoki u bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolarni Tomonlar ikki tomonlama muzokaralar orqali hal qilishga harakat qiladilar. Agar nizo tinch yo'l bilan hal etilmasa, u O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bank davlat ro'yxatidan o'tkazilgan manzili bo'yicha sudga ko'rib chiqilishi uchun topshirilishi kerak.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

7.2. Shartnoma Tomonlar uni imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarni toliq bajarguniga qadar amal qiladi.

7.3. Mazkur Shartnoma shartlarini o'zgartirish, uning muddatini uzaytirish yoki kelishilgan holda muddatidan oldin bekor qilish Tomonlarning qo'shimcha yozma kelishuvi bilan amalga oshiriladi, 5.1.3-bandlarda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.

7.4. Shartnoma uchta nusxada tuzildi, bitta nusxasi Bank uchun, Qarz oluvchi va notarius uchun taqdim etiladi. Har bir nusxasi bir xil yuridik kuchga ega.

7.5. Tomonlar Shartnomaning barcha shartlari (Tomonlarning huquq va majburiyatlari, kreditni qaytarish tartibi, foizlar miqdori va ularni to'lash tartibi va boshqalar) barcha Tomonlar bilan kelishilganligini, ularning manfaatlarini va huquqlarini buzmasligini tasdiqlaydi. Qarz oluvchi o'zi ixtiyoriy va ongli ravishda imzolagan ushbu Shartnoma bo'yicha foizlar va boshqa to'lovlar bilan tanishib chiqdi va o'z roziligini bildiradi, Shartnomaning huquqiy oqibatlarini ma'lum va tushunarli. Tomonlar, shuningdek, Shartnoma matni bilan tanish ekanliklarini, Shartnomaning barcha shartlarining ma'no va mazmuni aniq va tushunarli ekanligini, Shartnoma

tuzilgan tilga nisbatan shikoyatlari yoʻqligini tasdiqlaydilar va mazkur Shartnomani Tomonlar imzolagani bu haqda dalolat beradi.

7.6. Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlaydi va bildiradi: – kreditni rasmiylashtirish va olish uchun Bankka taqdim etilgan/taqdim etiladigan barcha hujjatlar va maʼlumotlar bunday hujjatlar va maʼlumotlar taqdim etilgan sanada haqiqiy va ishonchlidir; – haqiqiy yoki shartli majburiyatlarga, shu jumladan uchinchi shaxslar foydasiga berilgan kafolatga ega emas; – Qarz oluvchi Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishga haqli va bu majburiyatlar oʻz kuchiga ega;

7.7. Ushbu bilan Qarz oluvchi Bankka shartsiz huquqni taqdim etadi va quyidagi harakatlarni amalga oshirishga rozilik beradi:

7.7.1. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalar va shartlarga muvofiq kreditga layoqatliligini baholash maqsadida, Qarz oluvchining ushbu Shartnomada koʻrsatilgan, shuningdek, Bank maʼlumotlar bazasida va/yoki Kredit byurosining (keyingi oʻrinlarda “Byuro” deb yuritiladi) maʼlumotlar bazalarida saqlangan maʼlumotlarni qayta ishlash. Qarz oluvchi Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan huquqlardan xabardor boʻlib, unga koʻra Qarz oluvchining soʻroviga muvofiq maʼlumotlarni Qayta ishlovchi ularni tuzatish, yangilash, qoʻshish, bloklash, oʻchirish yoki yoʻq qilishi kerak, agar ular toʻliq boʻlmasa, notoʻgʻri, eskirgan yoki noqonuniy ravishda olingan yoki qayta ishlangan boʻlsa, ushbu bir martalik rozilik majburiyatlar bajarilgunga qadar / Shartnoma muddati tugaguncha amal qiladi.

7.7.2. Shuningdek, skoring modellaridan foydalangan holda Qarz oluvchining toʻlov qobiliyatini baholash jarayonida Bank ochiq/umumiy foydalanish mumkin boʻlgan Qarz oluvchi toʻgʻrisidagi har qanday maʼlumotlardan, shuningdek, ushbu turdagi xizmatni yetkazib beruvchidan olingan maʼlumotlardan foydalanish huquqiga ega, agar bu kabi maʼlumotlarni olish va ulardan foydalanish Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid boʻlmasa.

7.7.3. Ijtimoiy tarmoqlardagi telefon raqamlariga qoʻngʻiroq qilish va ularni yozib olish, Qarz oluvchining Bankka maʼlum boʻlgan manzillariga (rekvizitlariga) ushbu Shartnoma va BSh boʻyicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish masalalari boʻyicha xatlarni, elektron xabarlarini va SMS xabarlarini yuborish;

7.7.4. Qarz oluvchi bilan mazkur Shartnoma va BSh boʻyicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish masalasi boʻyicha muzokaralar (uchrashuvlar) oʻtkazish;

7.8. Qarz oluvchi tomonidan bank operatsiyasi jarayonida masofaviy aloqa kanallari orqali amalga oshirilgan tasdiqlar bosma hujjatdagi yozma imzo bilan bir xil yuridik ahamiyatga ega.

7.9. Tomonlar raqamli shaklda tuzilgan hujjatlar Qarz oluvchi tomonidan imzolangan bosma hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligi borasida rozilik beradilar. Shu sababli, raqamli shaklda tuzilgan hujjat Tomonlar oʻrtasida nizolar kelib chiqishi uchun dastlabki sabab boʻla olmaydi.

7.10. Agar ushbu Shartnomaning bir yoki bir nechta bandlari (shartlari) qonun yoki sud qarori bilan oʻz kuchini yoʻqotsa, bu Shartnomaning boshqa bandlarini (shartlarini) bekor qilish uchun asos boʻla olmaydi.

7.11. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

8. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOLARI:

BANK
“TBC Bank” ATB

Manzil: Oʻzbekiston Respublikasi, Toshkent shahar,
Mirobod tumani, Fidokor koʻchasi, 10B

Bank kodi: 01180
STIR: 207318613
IFUT: 64190
Tel: +(998)78 777 2727
e-mail: contact@tbcbank.uz

QARZ OLUVCHI

F.I.Sh.: «FullName»

Manzil: «CustomerAddress»

Pasport maʼlumotlari:
Kim tomonidan berilgan: «PassportIssuingAuthority»
«PassportValidFrom» dan «PassportVaidUntill»
gacha.
STIR: «PersonalNumber»
Tel: «PhoneNumber»



Savdo va mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassis

«AuthorizedUser».

e-mail: «Email»

Shartnoma bilan tanishib chiqdim va o'z roziligimni bildiraman).

F.I.Sh. _____

Qarz oluvchining to'liq F.I.Sh. va imzosi



“LoanCreateDate” yildagi “LoanId”-sonli Avtokredit shartnomasiga 1-Ilova

“LoanCreateDate” yildagi “LoanId”-sonli Avtokredit shartnomasiga
Kredit va foizlarni soʻndirish boʻyicha jadval / muddatli majburiyat

(soʻm)

№	Soʻndirish sanasi	Kredit qoldigʻi	Foizlarni soʻndirish boʻyicha prognozlash jadvali	Asosiy qarzni soʻndirish jadvali	Jami soʻndirilgan
	Jami	-	-	-	-

“BANK”

Savdo va mijozlarga xizmat koʻrsatish boʻyicha mutaxassis

“AuthorizedUser”. _____

M.Oʻ.

“QARZ OLUVCHI”

F.I.Sh. _____

Imzo _____